

O'QUV DASTURI PASPORTI

O'quv dastur uzlucksiz tibbiy va farmatsevtik ta'limni muvofiqlashtiruvchi kengashning 2025-yil 16 uyoldagu №UMO-12 sonli bayonnomasi asosida tasdiqlangan.
Amal qilish muddati 2027-yilgacha

| | |
|---|---|
| Ta'lim muassasi nomi | Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi |
| Kafedra/bo'lim | Harbiy tibbiy ekspertiza asoslari va o'zmirlar tibbiyoti kafedrasи |
| O'quv dasturi nomi | “O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida harbiy tibbiy ekspertizani tashkil etish va amalga oshirish” |
| O'qish turi | MMO |
| O'quv dastur muallifi/ mualliflari | R.M.Rizayev, A.G.Xolmuradov, SH.R.Fayziyeva |
| Siklning umumiy soati | 72 kredit |

Siklda dars beradigan o'qituvchi va trenerlar

| | | | | |
|--|--|--|--|--|
|  |  |  | | |
| KAfedra mudiri t.f.n. R.M.Rizayev | Assistant A.G.Xolmuradov | Assistant SH.R.Fayziyeva | | |

| | |
|----------------|---|
| Maqsad: | Jahon ilm-fani va amaliyotining harbiy tibbiy ekspertiza sohasidagi zamонави yuntuqlari asosida, respublikamizning sog'liqni saqlash xususiyatlardan kelib chiqib, malakaviy tavsiflar talablariga muvofiq ravishda tibbiyot tizimida faoliyat yuritayotgan harbiy shifokorlar O'zbekiston Respublikasining qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmon va qarorlarida harbiy xizmatchilarning sog'lig'i holati va jismoniy rivojlanishiga qo'yilayotgan talablar va harbiy tibbiy ekspertizaning bugungi kundagi zamонави yondashishlari to'g'risida ma'lumot berish, nazariy bilimlarini yangilash va chuqurlashtirish, yangi amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirgan holda kasbiy mahoratlarini oshirish. |
|----------------|---|

| | |
|---|---|
| Siklga taklif qilingan mutaxassislar - kontingen : | Mavzuiy malaka oshirish o'quv dasturi “O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida harbiy tibbiy ekspertizani tashkil etish va amalga oshirish” Mudofaa vazirligi, Milliy gvardiya, Davlat xavfsizlik xizmati, Ichki ishlar vazirligi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi terapevt, jarroh, nevrolog, psixiatr, okulist, otolaringolog, dermatolog, stomatolog mutaxassislari va |
|---|---|

| | |
|-------------------------|--|
| | Mudofaa ishlari boshqarmalari harbiy tibbiy komissiyalari shifokor-mutaxassislari uchun mo‘ljallangan. |
| Sikl vazifalari: | <ul style="list-style-type: none"> • harbiy tibbiy ekspertizasiga jalg etiladigan shifokor-mutaxassislarni harbiy tibbiy ekspertizaga oid O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari bilan tanishtirish; • shifokor-mutaxassislarni harbiy tibbiy ekspertizaga oid nazariy bilimlarini yangilash; • harbiy tibbiy ekspertizaning asosiy tamoyillarini shifokor- mutaxassislar kundalik ish faoliyatiga tadbiq etishni yanada chuqurlashtirish; • harbiy tibbiy ekspertizasiga oid O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmon va qarorlarini amaliyotga tadbiq etishga yo‘naltirish; • O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida tinchlik va urush davrida tibbiy ko‘rikdan o‘tkazishni tashkil etish va amalga oshirishga doir vazirlik va idoralararo qarori talablarini mutaxassislarga yetkazish; • Qurolli Kuchlarda tinchlik va urush davrida tibbiy ko‘rikdan o‘tkazishni tashkil etish va amalga oshirish tartibi to‘g‘risidagi nizomdagi kasalliklar va jismoniy nuqsonlar jadvali talablarini harbiy xizmatga chaqiriluvchilar sog‘lig‘iga qo‘yiladigan talablar bilan qiyoslash; • har bir shifokor-mutaxassisni o‘z yo‘nalishi bo‘yicha kasalliklarga mos ravishda kasalliklar va jismoniy nuqsonlar jadvalidagi moddalarini amaliyotga tadbiq etishni takomillashtirish; • harbiy tibbiy ekspertizasi kollegial xulosa chiqarish madaniyatini oshirish ko‘nikmalarini berish; • harbiy tibbiy ekspertizada samarali uslublarini va tamoyillarni, yangi bilim, mahoratini va ko‘nikmalarini shakllantirish; • harbiy tibbiy ekspertizada bo‘yicha ma’lumotlarni izlash va ularni asoslarini baholash ko‘nikmalariga o‘rgatish; • harbiy-tibbiy ekspertiza organlari faoliyatida yuzaga keladigan muammolarni yengishda kasbiy mahoratini oshirish; • chaqiriluvchilarni harbiy xizmatga yaroqlilik toifasini aniqlashda faqat shifokor-mutaxassislar javobgarlik ekanligi hissini shakllantirish. • chaqiriluvchilarni sog‘lomashtirish ishlaridagi ko‘nikmalarini o‘zlashtirish. |
| Sikl tarkibi: | <p>1 Modul. Harbiy tibbiy ekspertizaga oid O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari</p> <p>2 Modul. Harbiy-tibbiy ekspertiza asoslari.</p> <p>3-Modul. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida tinchlik va urush davrida tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish bo‘yicha qoidalari</p> <p>4-Modul. Harbiy tibbiy ekspertizaning ish yurituvini tashkil etish</p> |

| | |
|--|---|
| | <p>Dasturni amalga oshirishning tashkiliy-pedagogik ta'minoti O'quv bazasi:</p> <p>Respublika markaziy konsultativ-diagnostika poliklinikasi. Toshkent shahar Yashnaobod tumani Qorasuv ko'chasi 25 uy.</p> <p>Dastur bo'yicha auditoriya mashg'ulotlarini o'tkazish uchun zarur jihozlar ro'yxati: kompyuter, proyektor, doska, flebchat, marker. Modullar bo'yicha tavsiya qilinadigan o'quv uslubiy hujjatlar-qo'llanma, O'zbekiston Respublikasining qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentning qarorlari, vazirliklararo qarorlar, tarqatma materiallar, nazorat savollari, qo'shimcha adabiyotlar, situatsion masalalar elektron nus'hada saqlanadi.</p> |
| O'qish bazalari Respublika markaziy konsultativ diagnostika poliklinikasi (assosiy baza). |  |

